

LAVANDA O‘SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Solijonov Shahboz Zafarjon o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi

Turdaliyeva Mohigul Muxiddin qizi

Isroilova Muxlisa Abdusalimjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari

Anatatsiya: Lavanda ichga qabul qilish va tashqi foydalanish uchun qaynatma, damlamalar tayyorlash uchun qo‘llaniladi. O’simlik barglari va gullarini choylarga qo’shamdi. O’tning quruq aralashmasini mato xaltachalarga solib, aromaterapiya vositasi sifatida foydalanishadi.

Kalit so’z: Lavanda, Balg’am, Sershox, Parfyumeriya, oziq-ovqat sanoati, aromaterapiya.

LAVANDA (lotincha: Lavandula) - labguldoshlilar oilasiga mansub buta yoki doimi yashil chala butalar turkumi, efir moyli ekin. O’rta Dengiz sohillarida 25 dan ortiq turi uchraydi. Asosan, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Vengriya, Moldova, Qrim, Rossiyaning Krasnodar o’lkasida ensiz bargli L.(Langustifolia) turi yetishtiriladi. L.ning yangi to’pgulida 1.2-2.3% efir moyi mavjud. Parfyumeriya, oziq-ovqat sanoati, tibbiyotda qo‘llaniladi. L.yorug’sevar, qurg’oqchilikka chidamlili, issiqsevar o’simlik 30° sovuqqa chidaydi. Qalamchasidan ko’paytiriladi. Ildizi 40-50 ta uzun ipsimon ildizchalarida iborat. Tuproqqa 2 metr chuqur kirib bo’radi. Sershox, bir tupida 400-800 ta poya hosil qiladi. Mevasi qo’shaloq, 4 ta yong’oqchadan iborat, rangi sariq-jigarrang. Ekilgan ko’chatlardan 2-yildan boshlab 20-25 yilgacha hosil olinadi. Har 6-7 yilda lavandazorlar yoshartiriladi

Lavandalarning foydali xususiyatlari

O’simlikning yer ustidagi qismi inson organizimiga quydagicha ta’sir etadi:

- ❖ Tinchlaniradi, stressga chidamlilikni oshiradi, ruhiy holatni normallashtiradi;
- ❖ Teri holatini yaxshilaydi, chandiqlar kichrayishi, bo’rtmalar so’rilishiga yordam beradi;
- ❖ Yurak-qon tomir tizimi faoliyatida ko’maklashadi;
- ❖ Qon mikrosirkulyasiyasini yaxshilaydi;
- ❖ Qayta tiklovchi ta’sir-to’qimalarning tiklanishini tezlashtiradi;
- ❖ Mikroblarga qarshi, antiseptik, viruslarga qarshi ta’sirga ega;
- ❖ Yaralar yiringlashining oldini oladi;
- ❖ Ichni yumshatuvchi, siydk haydovchi yengil ta’sirga ega;
- ❖ Parazitlarga qarshi ta’sir;

- ❖ Balg’am haydovchi ta’sir,O’pkadan balg’amning chiqib ketishiga yordam beradi.



Lavanda vitamin va minerallarga juda boy.

Lavandadan foydalanish usuli:

Lavanda ichga qabul qilish va tashqi foydalanish uchun qaynatma, damlamalar tayyorlash uchun qo’llaniladi. O’simlik barglari va gullarini choylarga qo’shamdi. O’tning quruq aralashmasini mato xaltachalarga solib, aromaterapiya vositasi sifatida foydalanishadi.

O’simlikning o’zini alohida ishlatish ham, nisbatan murakkabroq retseplarda masalliqlardan biri sifatida foydalanish ham mumkin.

Lavanda damlamasi: tayyorlash uchun 2-3 choy qoshiq quruq xomashyo kerak bo’ladi, ustidan 500 ml qaynoq suv quyib, tindiriladi. 0.5 stakanidan kuniga 4 mahal qabul qilinadi.

Stressdan xalos etuvchi hazm qilishni normallashtiruvchi choy 25 gr lavanda, marjoram, yalpiz kerak bo’ladi. Aralashtirib, mahkam yopilgan shisha idishda saqlash zarur. Xuddi choy kabi foydalaniladi-1 stakan qaynoq suvgaga 0.5 osh qoshi lavanda.

Lavanda o’simlikning ekalogik toza hududlarda o’sgan quruq maydalangan barglari va gullari aralashmasi ko’rinishida taqdim etiladi.

Quruq aralashmani qaynatma, damlama sifatida ishlatishadi, choylarga qo’shishadi, xushbo’ylantiruvchi sifatida foydalanishadi.

Quydagi hollarda qo’llash tavsiya etilmaydi:

Lavandaga allergiya bo’lganda;

❖ Homildorlikda

❖ Emiziklik davrida

❖ Ehtiyotorlik bilan garmonal buzilishlarda,organizmda yod, temir yetishmovchiligidagi ehtiyotkorlik bilan qo'llash zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'jaboyeva N "Xalq tabobati xazinasidan javohirlar" Yangi asr avlod, 2009
2. Murdaxayev Yu.M "O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar" Toshkent,1999
3. To'xtayev B.Ye "O'zbekistonning sho'rlangan yerlarida introduksiya qilingan dorivor o'simliklar"